



Tadqiqot **UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR  
№24**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 22 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## 22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## 23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## 24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## 25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

<b>1. Алланазарова Қундуз Рахмонқуловна</b> ҲИНДИСТОННИ ЗАБТ ЭТГАН ЎЗБЕК ЎҒЛОНИ ЁХУД ШОҲ ВА ШОИР .....	7
<b>2. Matyusupova Maqsuda Bo'ronovna</b> ADABIY TA'LIMDA MAKTUBLARNING O'RNI.....	10
<b>3. Qurbanova Kumushoy Rashidovna</b> MULLA BEKCHON RAHMON IJODIDA TIL VA IMLO MASALALARI .....	12
<b>4. Ergasheva Gulnora Xamidullayevna, Artiqova Zulayxo Xursanbekovna</b> O'QUVCHILARGA ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" DOSTONINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI.....	14
<b>5. Муҳаммадислом Жўраев</b> МУМТОЗ АДАБИЁТДА ЗАҲҲОК ОБРАЗИ ГЕНЕЗИСИ.....	16
<b>6. Рашидахон Шерқўзиёва</b> МУҚИМийНИНГ САТИРИК ОБРАЗ ЯРАТИШ УСУЛЛАРИ.....	18
<b>7. Xolnazarova Altinay Qamchibekovna</b> ADABIYOTDA GUL OBRAZI TASVIRI .....	20



## АДАБИЁТ

### ҲИНДИСТОННИ ЗАБТ ЭТГАН ЎЗБЕК ЎҒЛОНИ ЁХУД ШОҲ ВА ШОИР

Алланазарова Қундуз Рахмонқуловна  
Қизирик туман 1-сон касб – ҳунар мактаби  
она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси  
Телефон: +99897 530 00 26

**Аннотация:** Ушбу мақолада Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижоди, Андижон ва Самарқанддаги воқеалар, Темурий шахзодалар ўртасида тахт учун кураш, унинг шоҳ ва шоир сифатида қилган ишлари ҳақида маълумотлар берилган.

**Калит сўзлар:** Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижоди, Самарқанд, Темурий шахзодалар ўртасида тахт учун кураш, Ҳиндистон юриши, Панипат жанги, Бобурийлар салтанати, “Бобурнома” ва “Муфассал”.

Буюк подшоҳ, мумтоз шоир, назариятчи адабиётшунос, фақих, тилшунос, санъатшунос, этнограф, ҳайвонот ва наботот оламининг билимдони сифатида кўпқиррали фаолият ва ижод соҳиби эди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йилнинг 14 февralида Андижонда, Фарғона улусининг ҳокими Умар Шайх Мирзо оиласида дунёга келди. Бу даврда Марказий Осиё ва Хуросонда турли ҳокимлар, ака-укалар, тоға-жиянлар, амакиваччалар ўртасида ҳокимият — улуғ боболари Амир Темури тузган йирик давлатга эгалик қилиш учун кураш ниҳоят кескинлашган

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йилнинг 14 февralида Андижонда, Фарғона улусининг ҳокими Умар Шайх Мирзо оиласида дунёга келди. Бу даврда Марказий Осиё ва Хуросонда турли ҳокимлар, ака-укалар, тоға-жиянлар, амакиваччалар ўртасида ҳокимият — улуғ боболари Амир Темури тузган йирик давлатга эгалик қилиш учун кураш ниҳоят кескинлашган эди.

Адабиёт, нафис санъат, табиат гўзаллигига ёшлигидан меҳр қўйган Заҳириддин, барча Темурий шахзодалар каби бу илмларнинг асосини отаси саройида, етук устозлар раҳбарлигида эгаллади. Бироқ унинг беташвиш ёшлиги узоққа чўзилмади. 1494 йили отадан етим қолди. 12 ёшида отаси ўрнига Фарғона улусининг ҳокими этиб кўтарилган Бобур қаламни қиличга алмаштириб, Андижон тахти учун укаси Жаҳонгир Мирзо, амакиси Султон Аҳмад Мирзо, тоғаси Султон Маҳмудхон ва бошқа рақибларга қарши курашишга мажбур бўлди. Бобур укаси Жаҳонгир Мирзо билан муроасага келиш учун унга ён беришга — Фарғона улусини иккига тақсимлаб, ярмини укасига топширишга қарор қилди ва ўзи Самарқанд учун олиб борилаётган ку-рашга киришиб кетди. Бир неча йил давом этган бу кураш қирғин-баротдан бошқа бирор натижа бермади: унда катта ҳарбий куч билан аралашган Шайбонийхоннинг қўли баланд келди ва Бобур Самарқандни ташлаб кетишга мажбур бўлди. 1504 йили Шайбонийхон Андижонни ҳам қўлга киритгандан сўнг, Бобур жанубга қараб йўл олди ва Кобул улусида ўз ҳокимиятини ўрнатди. 1505-1515 йилларда у Марказий Осиёга қайтишга бир неча бор уриниб кўрди. Аммо бу уринишлардан ҳеч қандай натижа чиқмади. Сўнг ўз мавқеини янада мустаҳкамлаш мақсадида, 1519-1525 йиллар давомида Ҳиндистонни қўлга киритиш учун бир неча бор жанглар олиб борди. 1526 йил апрел ойида Панипатда Ҳиндистон султони Иброҳим Лўди билан ва 1527 йили март ойида Читора ҳокими Рано Санго билан бўлган жангларда Бобурнинг қўли баланд келди. Тарихий маълумотларнинг баён қилишича, Бобурнинг Ҳиндистонга юришида Дехли ҳукмдори Иброҳим Султон сиёсатидан норози бўлган Панжоб ҳокимлари ҳам Бобурни қўллаганлар ва Сикри жангидаги бу ғалаба Бобурга Ҳиндистонда ўз ҳукмронлигини узил-кесил ўрнатиш ва Бобурийлар сулоласини барпо этиш имкониятини берди. Оврўпо



тарихчилигида «Буюк мўғуллар» номи билан «ғаллати машхур» бўлган, аслида «Бобурийлар сулоласи» Ҳиндистонда 300 йилдан ортиқ ҳукмронлик қилди. Бобур бу ғалабадан кейин узоқ яшамади — 1530 йил декабр ойида, Агра шаҳрида вафот этди ва кейинроқ унинг васиятига кўра фарзандлари унинг хокини Кобулга олиб келиб дафн этдилар.

Бироқ қисқа бир вақт ичида Бобур Ҳиндистонда сиёсий муҳитни барқарорлаштириш, Ҳиндистон ерларини бирлаштириш, шаҳарларни ободонлаштириш, савдо-сотик масалаларини тўғри йўлга қўйиш боғроғлар яратиш ишларига ҳомийлик қилди. Ҳиндистонни ободонлаштириш, унда ҳозиргача машхур бўлган меъморий ёдгорликлар, боғлар, кутубхоналар, карвонсаройлар курдириш, айниқса, унинг ўғиллари ва авлодлари даврида кенг миқёсга ёйилди. Ҳиндистон санъати ва меъморчилигига Марказий Осиё услубининг кириб келиши сезила бошлади. Бобур ва унинг ҳукмдор авлодлари ҳузурида ўша даврнинг илғор ва зеҳни ўткир олимлари, шоирлари, муси-қашунослари ва давлат арбобларини мужассам этган мукамал бир маънавий-руҳий муҳит вужудга келди. Бобурийлар давлатидаги маданий муҳи гнинг Ҳиндистон учун аҳамияти ҳақида Жаваҳарлаъл Неру шундай ёзган эди: «Бобур Ҳиндистонга келгандан кейин катта силжишлар юз берди ва янги рағбатлантиришлар ҳаётга, санъатга, архитектурага тоза ҳаво бахш этди, маданиятнинг бошқа соҳалари эса бир-бирларига тутшиб кетди».

Бобур Ҳиндистонда катта ҳажмдаги давлат ишлари билан бир қаторда ўзининг адабий-бадий фаолиятини ҳам давом эттирди ва юқорида зикр этилган асарларини яратди. Бобурнинг бутун жаҳон оммасига машхур бўлган шоҳ асари «Бобурнома»дир. Маълумки, унда Бобур яшаган давр оралағида Мовароуннаҳр, Хуросон, Эрон ва Ҳиндистон халқлари тарихи ёритилган. Асар асосан уч қисмдан иборат бўлиб, унинг биринчи қисми — XV асрнинг иккинчи ярмида Марказий Осиёда рўй берган воқеаларни; иккинчи қисми — XV асрнинг охири ва XVI асрнинг биринчи ярмида Кобул улуси, яъни Афғонистонда рўй берган воқеаларни; учинчи қисми — XVI асрнинг биринчи чорағидаги Шимолий Ҳиндистон халқлари тарихига бағишланган. «Бобурнома»да ўша даврнинг сиёсий воқеалари мукамал баён қилинар экан, ўз юрти Фарғона вилоятининг сиёсий-иқтисодий аҳволи, унинг пойтахти Андижон шаҳри, Марказий Осиёнинг йирик шаҳарлари: Самарқанд, Бухоро, Қарши, Шаҳрисабз, Ўш, Урганч, Ўратепа, Термиз ва бошқа шаҳарлар ҳақида ниҳоятда нодир маълумотлар келтирилган. Унда Кобул улусининг йирик шаҳарлари Кобул, Ғазна ва улар ихтиёридаги кўпдан-кўп туманлар, вилоятлар, Шимолий Ҳиндистон ҳақида маълумотларни учратиш мумкин.

Бобур шухратда даҳо Алишер Навоийнинг ёнида турадиган мумтоз сўз санъаткори, шоир ва адибдир. Бадий маҳорат бобида бирор ўзбек шоҳ ва шоири Бобур билан беллаша олмайди. Шеърият учун хос бўлган бир неча заруратлар: нуктапардозлик (янги фикрлар айта олиш маҳорати), жозибали бадий санъатлардан меъёрида усталик билан фойдаланиш сеҳргарлиги ва эҳтирос жўшиб турган рангин туйғулар талқини бобурога самимий шеърият фазилатларидир. Бунинг устига унинг мумтоз шеъриятга дадил киритган таржимаиҳоллик хусусияти ҳам Бобур шеъриятини алоҳида нурлантириб туради. Ана шу кейинги хусусият шоирнинг ватанпарварлик туйғуларига жон бағишлайди. У она шаҳри, Ватани соғинчларини шеърда ифодалар экан, Ҳиндистон шаҳаншоҳи беихтиёр ўзининг андижонлик ғариблигига китобхон эътиборини тортади:

*Не ерда бўлсанг, эй гул, андадур чун жони Бобурнинг,  
Ғарибингга тараҳхум айлагилким, андижонийдур.*

Шоирона юртсеварлик, ватанфидойилик Бобур шахсида шунчалик тантана қиладики, буюк император Бобур энди Андижондан йироқликни, гарчи бу мартаба Ҳиндистон тахти бўлса ҳам, қисматдаги юз қаролиғ, деб ҳисоблайди:

*Толёй йўқи жонимга балолиғ бўлди,  
Ҳар ишники айладим хатолиғ бўлди.  
Ўз ерни қўйиб, Ҳинд сори юзландим,  
Ё Раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди?!*

Шеър таъсирчанлигини таъминлаган фикрий кашфиёт: толесизлик, жонга бало ортиришлик, хато қилишлик, юзи қаролик — буларнинг ҳаммаси ўз юртидан бош олиб кетишда, ғарибликни бўйинга олишдадир.

Бугун Ҳиндистоннинг Панипат шаҳрига борган киши Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг Султон Иброҳим Лўдий билан бўлган тарихий музаффарона жанги манзараларини



шаҳарнинг очик осмони остидаги музейда кўраркан, ҳинд халқининг Бобурга нисбатан ҳурмат-эҳтироми кучлилигига амин бўлади. Ёки Бангладеш пойтахти Дакка шаҳрини кезган киши «Лаълбоғ-қалъа» тарихий музейига кириб Бобур ва бобурийларга бағишланган хоналарни кезаркан, Бобур ва унинг ворисларига тегишли кийимлар, уй-рўзгор буюмлари, ҳарбий қурол-аслаҳалар, Устод Алиқули қуйган тошотар тўплар, милтиқлар — туфаклар, совут, қилич-қалқонлар, дубулға, от кежимларини(ўқ ва қилич зарбасидан ҳимоя қилувчи ёпинчқлар), ўша давр кишиларини ўз замонлари либосларида томоша қилган киши Ҳиндистон ва Бангладеш халқларининг Бобур ва бобурийларга бўлган ҳурматларини ёрқин тасаввур эта олади.

Шу билан бирга Бобур лирикасида шеърининг асосий мазмуни бўлган инсоний фазилатлар, ёр васли, унинг гўзаллиги, унга чексиз муҳабат, ҳижрон азоби, айрилиқ аламлари ва висол қувончлари ниҳоят гўзал ва моҳирона ифода этилган.

*Ҳазон япроғи янглиғ гул юзунг ҳажрида саргардим,*

*Кўруб раҳм айлагил, эй лола руҳ, бу чеҳраи зардим.*

*Сен эй гул, қўймадинг саркашлигингни сарвдек ҳаргиз,*

*Аёгингга тушуб барги хазондек мунча ёлвордим.*

Бобур ўз лирик шеърларида ҳар доим одамларни яхшиликка, адолат, инсонпарварликка, юксак инсоний туйғуларни қадрлашга чақирди:

*Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидур,*

*Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидур.*

*Яхши киши кўрмагай ёмонлиғ ҳаргиз,*

*Ҳар кимки ямон бўлса, жазо топқусидур.*

Бобур лирик шеърлари ва тарихий «Бобурнома»сидан ташқари, ислом қонуншунослиги ва бошқа соҳаларда ҳам асарлар яратган. 1522 йилда ўғли Ҳумоюнга атаб ёзган «Мубаййин» номли асарида ўша замон солиқ тизимини, солиқ йиғишининг қонун-қоидаларини, шариат бўйича кимдан қанча солиқ олиниши ва бошқа масалаларни назмда изоҳлаб берган. «Хатти Бобурий» деб аталган рисоласида араб алифбосини туркий тиллар, хусусан, ўзбек тили нуқтаи назаридан бирмунча соддалаштириб беришга ҳаракат қилган. У, тажриба сифатида «Хатти Бобурий» алифбосида Куръони Каримни кўчирган. Бобурнинг аруз вазни ва қофия масалаларига бағишланган «Муфассал» номли асари ҳам бўлганлиги маълум, бироқ бу асар бизгача етиб келмаган.

Бобур ўзининг маълум ва машҳур асарлари билан тарихнавис адиб, лирик шоир ва ижтимоий масалалар ечимига ўз ҳиссасини қўшган олим сифатида халқимиз маънавий маданияти тарихида муносиб ўрин эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, Тошкент., 2001; 83-88 бетлар.
2. Машрабов З., Шокаримов С, Асрларни бўйлаган Бобур, Тошкент., 1997;
3. Воҳидов Р., Биз билган ва билмаган Бобур, Тошкент., 2000.



## ADABIY TA'LIMDA MAKTUBLARNING O'RNI

**Matyusupova Maqsuda Bo'ronovna**

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 42-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon:+998(91)4347345  
Tallaevserzod@gmail.com

**Annotatsiya:**Maqolada xat janrining yozuvchi ijodi va shaxsiyatini o'rganishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.Qadimdan ijod ahli orasida noma yozish an'anasi mavjud bo'lgan.Ijodkor xarakteri,dunyoqarashi va hayotiy maslagi u yaratgan asarlaridagina emas, balki zamondoshlari, yaqin insonlariga yo'llagan xatlari yoki uning adabiy qahramonining yozgan nomalari orqali yanada mukammallashadi.

**Kalit so'zlar:** yozuvchi,ijodkor, shaxsiyat, ijod,yozishma, xat, maktub, noma, milliylik, urf-odatlar,mumtoz adabiyot,janr.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari va ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab etadi. Keng qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib,barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan adabiy ta'limning mazmuni o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyatini,aqliy rivojlanishini,mantiqiy tafakkurini o'stirish, o'quvchilarni o'z-o'zini,moddiy borliqning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilimizning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda erkin bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi.

O'quvchilarning dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, adabiy ta'limda maktubshunoslik janriga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Uzluksiz adabiy ta'lim jarayonida maktublardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, faqatgina asarlari yuzasidan fikr yuritish orqali ijodkorga yetarlicha baho berib bo'lmaydi.Shu jihatdan olib qaraganda,ijodkor xarakteri,dunyoqarashi va hayotiy maslagi u yaratgan asarlaridagina emas, balki zamondoshlari, yaqin insonlariga yo'llagan xatlari yoki uning adabiy qahramonining yozgan nomalari orqali yanada mukammallashadi. Aslida qadimdan ijod ahli orasida noma yozish an'anasi mavjud bo'lgan.Noma o'zbek mumtoz adabiyotida alohida janr sifatida shakllangan bo'lib,forschadan "xat", "maktub" ma'nolarini anglatadi. Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi buyuk shoirlar o'rtasidagi do'stona rishtalarni yozishmalar yanada mustahkamlagan."Xamsat ul-mutahayyirin" asarining ikkinchi bobi maxsus bitiklardan tashkil topganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.Navoiy ichki intizomga muntazam rioya qilganligi boisdan hatto o'z maktublarini ham tartib bilan saqlab qo'ygan.Natijada 1499-yilda "Munshaot" ("Maktublar") degan kitobi tuzilgan edi. Darslarda "Xazoyin ul-maoniy" ning birinchi devoni-"G'aroyib us-sig'ar" inson sha'nini ulug'lab ustozı Said Hasan Ardasherğa yo'llagan hasbi hol tarzidagi she'riy maktublardan iborat ekanligi mantiqiy izchillikda yetkazilsa, shoir shaxsiyati quruq gaplar asosida emas, balki hayotiy voqealar misolida anglanishiga erishiladi.

Barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda mashg'ulotlarni mavzuga oid kundalik, maktub va esdaliklardan foydalangan holda tashkil etish ijobiy samara beradi.Jumladan,6-7-sinf adabiyot darslarida Abdulla Qahhor hayoti va ijodini xatlarga bog'lab o'rganish yozuvchiga xos sinchkovlik, g'amxo'rlik va talabchanlik kabi fazilatlarini namoyon qiladi.Ilk mashqi bosilib chiqqan talaba O'tkir Hoshimovga yo'llagan maktubi misolida yozuvchining unib-o'sib kelayotgan iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashi,ularga xayrixohligi namunasini sezish uncha qiyin emas.Masalan: "*Cho'l havosi*"ni o'qib-deb yozadi Abdulla Qahhor,-suyunib ketdim.Birdan lov etib,alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi. Qissa sof, samimiy, iliq, rohat qilib o'qiladi.Qissaning xat shaklida bo'lishi ko'p o'rinlarda sizni cheklab qo'ygan. Asar bosh qahramon tilidan hikoya qilinganida ham shunday bo'lardi. Kelgusida buni hisobga oling. Shu alanga hech qachon pasaymasin.Ijodingiz hech qachon tutamasin. Salom bilan, Abdulla Qahhor".



O'zbek adabiyoti bo'stonida shaxsiy hayoti va ma'naviy fazilatlari bilan bugungi kun o'quvchisiga o'rnak bo'la oladigan adiblar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, taniqli adib, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad shaxsiyati ko'pchilikka tanish bo'lsa kerak. Hammamizga ma'lumki, yozuvchi ayni navqiron yigitlik chog'ida ko'plab o'zbek ziyolilari qatori nohaq qatag'onga uchrab, umrining besh yilini Qozog'istonning Jezqozg'on konlarida o'tkazgani sir emas. Darslarda Said Ahmadning umrbayoni va ijodi bilan tanishtirish jarayonida rafiqasi Saida Zunnunovaga yozgan maktublar bilan uzviylikda o'rganilsa, ijodkor yashagan davr muhiti, atrofidagi insonlar bilan munosabatlari haqida mustaqil fikr-mulohaza yuritilishga zamin yaratiladi. Masalan: "...Yozgan xatingizda *"hasratimni yozay desam, qalamga o't tushib, qog'oz kuyib ketdi"*, - debsiz. O'sha kuygan qalam bilan qog'ozning yolqini mening ham qalbimda alanga olib ketdi. Qalamni kuydirmang... Ruhan tusha ko'rmang. Kitob bilan qalam ulfatingiz bo'lsin. Men xuddi shunday qilyapman..." Da'vatlarga javoban Saida Zunnunova turmush o'rtog'i kutganidan-da qat'iyatli bo'ldi va hech qachon nomard kimsalar oldida bosh egmadi.

Darsdan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun maktublarga bag'ishlangan sinfdan tashqari darslar tashkil etish yoki to'garaklarda ish olib borish ham yaxshi samara beradi. Mustaqil izlanishlarni tashkil etishda vazifalar qanchalik aniq bo'lsa, o'quvchilar faoliyati shunchalik yengil kechadi. Manbalarni topishda esa axborot-kutubxona fondidan foydalanishga doir tavsiyalar berilib, adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Vaqti-vaqti bilan topshiriqlar ijrosi yakka yoki jamoaviy tarzda savol-javob, suhbat usullarida nazorat qilib turiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'limda erkin fikrlovchi, yuksak ma'naviyatga ega shaxs tarbiyasida epistolyar janr namunalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Amaldagi 10-sinf adabiyot darsligi (1-qism). T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti, 2017.
2. Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
3. Borlig'im, kelajagim, taqdirimni baham ko'rdim // "Saodat" jurnali, 2011, 5-6-sonlar.
4. Ziyonet.uz materiallari.



## MULLA BEKCHON RAHMON IJODIDA TIL VA IMLO MASALALARI

**Qurbanova Kumushoy Rashidovna**

O'zMU Jurnalistika fakul'teti

“Adabiyotshunoslik” yo'nalishi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asr Xorazm adabiy muhitining yetakchi namoyandasi hisoblangan Mulla Bekjon Rahmon ijodida til va imlo masalalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mulla Bekjon Rahmon, til va imlo, ma'rifatparvar olim, yangi alifbo, shevaga xos, “Alanga” jurnali, bog'don shevasi, qo'shiqlar, yangi alifbo

XX asr Xorazm adabiy muhitining yetakchi namoyandasi hisoblangan Mulla Bekjon Rahmon nafaqat adabiyotshunoslik sohasida, balki san'at va madaniyat, publitsistika, tilshunoslik sohalarida ham o'tkir bilim egasi hisoblangan va shu sohalarida ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Mulla Bekjon Rahmon faoliyatida til va imlo masalalariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Sababi 1930-yilda millatimizning lotin yozuviga o'tishida boshqa ma'rifatparvarlarimiz qatorida Mulla Bekjon Rahmonning ham alohida xizmatlari, harakatlari tahsinga loyiq. Jadid mutafakkirlarimizning ilm-fan sohasidagi yangiliklari, xalqni yanada savodxon qilish maqsadida yozgan maqolalarini yoritish maqsadida 1928-1929-yillarda “Alanga” jurnali faoliyat ko'satgan bo'lib, bu jurnalda bir qancha jadidlarimiz qatorida Mulla Bekjon Rahmonning ham ko'plab maqolalari e'lon qilingan. Jurnalda ma'rifatparvar olimimizning quyida nomi keltirilgan maqolalari nashr etilgan: “O'zbekistonda lotinchilik harakati” (1928-yil, 1-son); “Yangi alifbo harf sirasi to'g'risida” (1928-yil, 12-son); “Til imlo konferensiyasi” (1929-yil, 4-son); “Bog'don shevasi” (1929-yil, 12-son); “O'zbek notasi” (1928-yil, 3-4-sonlar) “O'zbekistonda lotinchilik harakati” maqolasida lotinchilik harakatlarining ilk bosqichlari va uning samarasi haqida so'z olib boriladi. Ushbu maqola quyidagicha boshlanadi: “Jadidlar harakati davrlarida yangilik harakatlari bo'lsa ham imlo va harf masalasi, din bilan qattiq bog'langan arab yozuvini o'zgartirish yoki tamoman tashlash an'anaparastligiga zid masalalarni qo'zg'atish esa imkondan tashqari edi. Bu qorong'i davrda O'zbekistonda (lotinchilik) harakati ko'rinmaydi, hamda bo'lishini kutishda yaramaydi”<sup>1</sup>.

Ushbu fikrlardan o'sha paytdagi vaziyatning og'irligiga qaramasdan millatimiz faxri bo'lgan jadidchilarimizning o'zligimizni anglash va buni boshqalarga ham anglatish yo'lida qo'rqmasdan, dadil harakat qilganlarini yana bir bor anglab olish mumkin.

Maqolaning “O'zbeklar orasida birinchi martaba lotinchilik harakati” degan qismida 1921-yilning 1-yanvarida Toshkentda birinchi o'lka o'zbek “Til va imlo” qurultoyi chaqirilishi va unda ko'riladigan masalalar ro'yxati; unda Fitrat, Botu domlalarining so'zlagan otashin nutqlari keltiriladi. Bu maqolada yana O'zbekistonda birinchi marotaba o'zbek yangi alifbo qo'mitasining tuzilishi va yangi alifboning tugal ravishda amalga oshirilishi haqida so'z yuritiladi.

1929-yilda bosilib chiqqan yana bir maqola “Til imlo konferensiyasi” da ham konferensiya bayoni hamda yangi yozuv uchun asos bo'lgan imlo qoidalarini qay tartibda ishlab chiqish mumkinligi to'g'risidagi ishlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Maqola mazmuni bilan ozgina tanishish maqsadida maqoladan ozgina parcha berib o'tamiz: “O'zbekiston chegarasida yashagan o'zbeklar ayni tilda so'ylashib bir-birlarining ifodalarini anglasalarda sheva yoqlarda ayrimliklar yo'q emasdir, shuning uchun bir shevada birlashgan adabiy tilni tug'dirish bo'lmag'ur narsadir. Shuning uchun hozirda bor bo'lgan adabiy tilni asos qilib olib Anjan shevasiga yaqinlashtirish lozim. Shuningla barabar boshqa shevalarning lug'atlaridan ham foydalanish zarur degan fikrlar oldinga surilib turmoqdadir”<sup>2</sup>.

“Alanga” jurnalining 1929-yildagi 12-sonida bosilib chiqqan “Bog'don shevasi” maqolasida Mulla Bekjon Rahmonning o'zbek tilining Bog'don shevasi bo'yicha olib borgan tekshiruv ishlari yoritilgan. Ushbu maqolada Bog'don shevasining nomiga, uning kelib chiqish tarixiga hamda shevaga xos xususiyatlarga to'xtalib o'tilgan. Maqolada bog'don shevasidagi so'zlar va tovushlar haqida yetarlicha ma'lumot berilgan hamda bog'doncha maqollar, topishmoqlar, qo'shiqlardan ham misollar keltirilgan. Quyida bu tadqiqotlardan misollar keltirib o'tamiz:

<sup>1</sup> Bekjon Rahmon o'g'li. O'zbekistonda lotinchilik harakati // Alanga. –1928. №1 B.8-9

<sup>2</sup> Bekjon Rahmon o'g'li. Til imlo konferensiyasi // Alanga. –1929. №4 B.4-5



Bog‘doncha maqollar:

1 – Chumchuq sumurup botmon bo‘lmas, botmon bo‘lub qozon to‘lmas.

2 – Qozonga yo‘lama qorasi yuqar. Yomonga yo‘luqsang balosi yuqar.

3–Eshikdan oqqan suvni qari yo‘q. 4 – Bo‘sag‘adan topilsa to‘rga o‘tma.

**Bog‘doncha jummoqlar:**

1 – Qo‘tur tuya kulga ag‘naydo. (Qotirma) 2 – O‘zu to‘q ko‘lankasi yo‘q. (Quduq)

3– Hakim cho‘loq yer teshar. (Tomchi)

**Ziyvodon**

Ziyvajon otlandi chiqdi soy bilan

Chiynini nodonga bermang sindirur.

Ol nodon qachon qangulni tindurar.

Qo‘lida chiyniy piyola nay bilan.

Bayit aytay basaya,

Bizlar bayit aytkanda

Tikkan ro‘molni xasaya.

Begijon quloq solsaya<sup>1</sup>.

“Alanga” jurnalida keltirilgan Mulla Bekjon Rahmon qalamiga mansub maqolalar bilan tanishar ekanmiz, ijodkorning boshqa sohalar qatorida, tilimiz rivoji bo‘yicha ham ancha ishlar qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, olimning bu sohada qilgan ishlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini to‘la-to‘kis saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ирзаев Б., Рахмонова Ю. Хоразм вилояти хотира китоби. – То: “Академнашр”, 2019.

2. 2. Полвонниёз Хожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч: “Хоразм”, 2000.

3. 3. Bekjon Rahmon o‘g‘li. O‘zbekistonda lotinchilik harakati // Alanga. –1928. №1 B.8-9

4. 4. Bekjon Rahmon o‘g‘li. Til imlo konferensiyasi // Alanga. –1929. №4 B.4-5

---

1 Bekjon Rahmon o‘g‘li. Bog‘don shevasi // Alanga. –1929. №12 B.26-28



## О‘QUVCHILARGA ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONINI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI

**Ergasheva Gulnora Xamidullayevna**  
**Artiqova Zulayxo Xursanbekovna**  
Namangan viloyati Mingbuloq tumani  
12-umumta’lim maktabi Ona tili va  
adabiyot fani o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yosh avlodni bilimli qilib tarbiyalashda badiiy asarlarning ahamiyati hamda Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonini o‘qitishning samarali usullariga oid fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** Alisher Navoiy, badiiy adabiyotlar, doston, ramziylik, metod.

Yosh avlodni bilimli qilib tarbiyalash har bir mamlakatning kelajak oldidagi burchi hisoblanadi. Qachonki, yosh avlod vakillari o‘zligini, ota-bobolarining yozgan adabiyotlari orqali tushunsa kelajakka yorqin nigoh bilan boqadi. O‘quvchilar o‘qiyotgan adabiyotlar, ularning ma’naviyatini, ma’rifatini, ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun o‘quvchilar mutolaa qilayotgan adabiyotini hayot bilan bog‘lagan holda, tabiat hodisalari va tabiatdagi mavjudotlar bilan aloqador holda tushuntirilsa, yoshlarni tarbiya va atrof-muhitdan ajratmagan holda tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiyning 1499-yilda yozilgan “**Lison ut-tayr**” (“Qush tili”) dostonini o‘rta sinflar uchun oddiylikdan murakkablikka metodidan foydalangan holda o‘qitish yaxshi samara beradi. Bu metod tabiat bilan bog‘lagan holda amalga oshiriladi. Tabiatdagi qushlar va ularning xarakteri bilan o‘quvchilar oldindan tanishdir. Bu asarda ham keltirilgan qushlar bilan o‘zaro qiyoslab ko‘rsatiladi. “Lison ut-tayr”ni o‘qitishdagi oddiylikka quyidagi yo‘ldan boriladi va bu metodning vazifasi asardagi voqealarni ijtimoiy hayot bilan bog‘lagan holda o‘quvchilarga o‘rgatish:

**Hudhud** barcha qushlarga yo‘lboshchi bo‘ladi, bu qush o‘ta aqlli, qat’iyatli deb keltirilgan. Dostonda bu qushni majoziy ma’noda olinganligi, aslida kishi, shaxs tasviri ifoda etilganligini aytib, insonlarga xos xususiyat bilan izohlaymiz. Dostonda keltirilgan tovus va tazarvni tashqi go‘zallik bilan mag‘rurlanish timsoli sifatida ko‘ramiz. Tovus tilidan aytilgan quyidagi bayt buning misolidir:

*Tengri bermish husn-u zebolig‘ manga,*

*Haddan ortuq zeb-u ra’nolig‘ manga*

Tabiatda ham tovus nihoyatda chiroyli va ko‘rkamligi bilan ajralib turadi. Bu qush o‘ziga bino qo‘ygan odamlar timsolidir. To‘tining asosiy ishi taqlid, dostonda to‘ti hudbinlik va shuhratparastlik timsoli, ya’ni shuhratparast kishilar timsolini gavdalantirgan. Hudhud bilan yo‘lga chiqqan bulbul o‘z gulzoridagi bir gulni yoqtirishini, undan ko‘ngil uzolmaslikini aytadi:

*Toki gul bo‘stonida bo‘lg‘ay jilvasoz,*

*Ming navo birla qilurman sharhi roz.*

Shunda podshohga oshiq bo‘lib qolgan gado hikoyatini keltiradi. Soxtalik va riyokorlikni chin oshiqlik va yolg‘on muhabbatni anglash kerakligini shu hikoyat orqali berib o‘tadi muallif. Bu asardagi qumri chamanzordan chiqmagani sababli bu yo‘l uning uchun qiyinchilik tug‘dirishini aytadi. Bunga javoban Hudhud “**Bog‘bon**” hikoyatini aytadi va unda bog‘bon o‘z nomiga munosib bo‘lmagan, na ko‘chat ekishni, na daraxt kesishni bilgani, u faqat bog‘ni o‘tinlardan tozalagan, deya hikoyatini bayon qiladi. Bu hikoyatlarning hammasi majoziy ma’noni ichiga yashirgan bo‘lib, ularda kishilar o‘z kasbiga munosib bo‘lishi, tanlagan hunarini ipidan ignasigacha chuqur bilishi, hayotni faqat bir tekis deb o‘ylamay, qiyinchiliklarga ham bardosh berishi kerakligi aytilgan.

Dostonda ijtimoiy ruhdagi hikoyatlarning aksariyati mana shu boblarda aks etgan. Ushbu munozaralar 41 bobni (32-73) tashkil qiladi. Bu dostonni o‘quvchilarga o‘qitishda yuqorida aytib o‘tganimizdek, oddiylikdan murakkablikka qarab boruvchi metodidan foydalanib oddiylikni tushuntirdik. Murakkablikka o‘tishda esa asardagi falsafiy qarashlar bilan yo‘g‘irilgan g‘oyalarni va tasavvuf ilmini o‘quvchilarga o‘qitishorqali amalga oshiriladi.

Bu doston qushlarning Hudhud boshchiligida Semurg‘ yashayotgan yurtga chiqishidan boshlanadi. Hudhud ularni tanqid qilar ekan kishilarni bu illatlardan qutilishga chaqiradi.



Qushlar Semurg' yurtiga borguncha og'ir va mashaqqatli qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Buni odamlarning Haq yo'lida chekkan riyozatlari deya baholaydi. Bunda asardagi eng yaxshi hikoyat, **Shayx San'on** hikoyati orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Bu hikoyat Alisher Navoiyning tabiat va ilohiyotning bir butunligi – *vahdati vujud* nazariyasiga asoslangan.

Hudhud hikoyatidan so'ng asl manzilga yetish uchun 7 vodiyni kesib o'tishi kerakligi aytiladi. Qushlar bosib o'tishi mumkin bo'lgan vodiylar tasavvuf yo'lga kirgan solihning bosib o'tishi kerak bo'lgan yo'lidir. Semurg'ni qidirib yo'lga chiqqan qushlarning hammasi ham bu yo'llardan o'tolmaydilar. Ularning ba'zilar cho'l-u sahrolarda qolib ketadi. Qalbida Alloh bo'lgan, Haqqa yetishish yo'lida hech qanday qiyinchiliklardan qaytmaydigan shaxs o'z maqsadiga erishadi.

Bu mavzuni o'tishda Power-point dasturida bajarilgan slaydlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Unda qushlarning rangli rasmlari beriladi. Ularga mos baytlar asardan keltirib o'tiladi. Undan tashqari Tasavvuf bosqichlari: *shariat – tariqat – ma'rifat – istig'no – tavhid – hayrat – fano* vodiylari va ularning ta'riflari ham qiyosiy tahlilda taqdimot usulida – slaydlar ko'rinishida tayyorlansa samarasi yuqori bo'ladi.

Bundan tashqari kichik "Taassurot-insho", kichik bahs-musobaqa uyushtirsa ham bo'ladi. Pirovardida shuni ta'kidlash lozimki, qaysi usulni tanlashdan qat'i nazar barchasini o'qituvchining iqtidori hal qiladi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, yosh avlodni tarbiyalashda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonini o'qitish tarbiyani tabiatdagi hodisalar bilan birga o'rgansa, esda qolishi va hayotda tadbiq etishi oson kechadi, tushunish darajasi ham osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N.Komilov. Tasavvuf. – T.: 1996
2. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf saboqlari. – B.: 2000
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: 1991



## МУМТОЗ АДАБИЁТДА ЗАҲҲОК ОБРАЗИ ГЕНЕЗИСИ

Муҳаммадислом Жўраев

Бувайда тумани

23-мактаб ўқитувчиси

e-mail: jurayev@gmail.com

**Аннотация:** мақолада ўзбек мумтоз адабиётида образ масаласи ва унинг ифодаланиши масаласи ёритилган.

**Калит сўзлар:** мумтоз адабиёт, образ, мавзулар, Заҳҳок, воқелик

Шарқ, хусусан, ўзбек мумтоз адабиёти тарихида кенг тарқалган ва бадиий жиҳатдан қайта-қайта ишланган мавзу ва образлар тизими мавжуд. Ҳар бир адиб у ёки бу образга мурожаат қилар экан, ана шу образ орқали ўз ғоялари, воқеликка муносабати, фалсафий-эстетик қарашларини ифодалашга ҳаракат қилган. Жумладан, адолат ва ноҳақлик, эзгулик ва ёвузлик, садоқат ва бевафолик, мардлик ва хоинлик сингари етакчи мавзулар бадиий ифодасида бундай анъанавий образларнинг аҳамияти катта бўлган. Шу билан бир қаторда, ғоя ва мазмун ифодасига изчил хизмат қилувчи шаклий унсурлар, жанр хусусиятлари ҳам инobatга олинган. Натижада замонавий адабиётдаги ҳикоя, қисса сингари жанрларнинг генетик илдизларига асос солинган.

Масалан, Заҳҳок қиссаси Абулқосим Фирдавсий “Шоҳнома”сида кенг миқёсда бадиий ишланган ёвузлик тимсоли ҳақидаги алоҳида адабий асардир. “Шоҳнома” муаллифи золим Заҳҳокни мамлакатни хароб қилган, ўз нафси ва муроди йўлида ҳеч нарсадан қайтмайдиган қаттол ва бешафқат кимса сифатида талқин этган. Қадимги Эрон тарихида зулм ва адолатсизлик борасида ўчмас из қолдирган мазкур ҳукмдор кўплаб бадиий, тарихий асарларда ҳам ўз ифодасини топган. Ўз ҳаёти мобайнида нафақат улуғ шоир ва мутафаккир, балки улкан давлат ва жамоат арбоби бўлган Алишер Навоий ҳам ўзининг адолатпарварлик маслағи, инсонпарварлик ғояларидан келиб чиқиб, Заҳҳок образига мурожаат қилган. Чунончи, шоирнинг “Тарихи мулуки Ажам” асарида инсоният тарихида машъум из қолдирган мазкур ҳукмдорга алоҳида ўрин ажратилган. Бу бежиз эмас, албатта. Давлат бошқарувида фаол иштирок этган Навоий халқ учун ҳар қандай зулм офат келтириши, мамлакатни харобаликка етаклаши, тараққиётни барбод қилишини чуқур англаган. “Илкимдин келганча зулм тиғин ушотиб, мазлумлар ярасиға марҳам қўйдим”, дейди шоир бир ўринда.

Ана шундай инсонпарварлик позициясида туриб, Алишер Навоий “Тарихи мулуки Ажам”да Заҳҳок ҳақидаги маълумотларга ўрин ажратар экан, унга Эрон тарихида машъум из қолдирган ҳукмдор сифатида баҳо беради. Муаллиф мазкур асарнинг тарихий характерда эканлигини назарда тутиб, у ҳақдаги маълумотларни қуйидаги фактлар ва ҳаётий деталлар билан бойитади. “Заҳҳок бинн Мардос чун Жамшид қатлидин сўнг Порс тахтин олди, зулму ситам оғоз қилди. Тенгри таоло Ҳуд алайҳиссаломни йиборди. Анинг даъватин Шаддод қабул қилмади. Тенгри таоло ани ва қавмини ранжул ақим била ҳалок қилди ва Шаддод ўғли Мазид подшоҳ бўлди. Ва Иброҳим алайҳиссалом анинг замонида эрди. Ва Юсуф алайҳиссалом ҳам анда мутаваллид бўлди (туғилди) ва Ҳуд алайҳиссалом диниға кирди”.

Асарда шундан кейин темирчи Кова бошчилигидаги халқ кўзғолони ва унинг ихчам тарихий-бадиий тафсилоти ҳам берилади. Бу, албатта, асарнинг илмий-тарихий қимматини ошириш билан бирга, мумтоз адабиётимиз тарихида қиссанавислик элементлари ҳам шакллана бошлаганидан далолат беради. Аммо Алишер Навоий ўз даври илм-фани даражаси, савиясидан юқори кўтарила олмаслиги табиий эди. Масалан, Заҳҳокнинг елкаларидан иккита илон ўсиб чиқиши, улар ҳар куни иккита ёш йигитнинг мияси билан озиқланиши мифологик тушунчалар ҳамда афсонавий тасаввурлар асосида берилган. Чунончи, Заҳҳокнинг минг йил салтанатни бошқарганлигини ҳам шундай ҳол деб ҳисоблаш мумкин. Аммо биз учун муаллифнинг ғоявий –бадиий нияти, фалсафий-эстетик маслағи муҳимдир. У зулм қанчалик тантана қилмасин, бир кун келиб интиҳосига етиши, золим эса албатта жазога мустаҳиқ эканлигини таъкидлайди. Зеро ҳукмдорлар ўткинчи, халқ эса боқийдир. Шунинг учун ҳам Заҳҳокдек даҳшатли тож эгаси Кова сингари оддий халқ



вакили бўлган темирчининг саъй ҳаракати билан ҳалок бўлади.

Алишер Навоий ўз даври тушунча ва савиясидан бирмунча юқорига кўтарила олган, тарихий факт ва маълумотларга реал қарашга интилганлиги кўзга яққол ташланиб туради. Масалан, у Заҳҳокнинг елкаларида мараз (яра) пайдо бўлганлигини, унга янги қатл этилган кишилар мияси малҳам бўлишини айтгачгина, ривоятларда келтирилган илонлар ҳақидаги тафсилотларни қистириб ўтади. Заҳҳок зулмини янада таъкидлаш маъносида агар қатл этиш учун гуноҳкор киши топилмаса одамлар орасидан чек (куръа) ташлатиб қурбон танлашини баён этади. Бу эса қисса жанрига хос бўлган воқеалар ривожи, конфликт, ечим сингари элементларнинг мумтоз адабий намуналардаги кўриниши эди, дейиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги Истиклол шароитида мумтоз адабиётимизнинг нодир намуналаридан бўлган “Қисаси Рабғузий”, Алишер Навоий ижодий меросига мансуб “Тарихи анбиё ва ҳукамо”, “Тарихи мулуки Ажам” сингари нисбатан кам ўрганилган асарларни атрофлича таҳлилга тортиш, бадиий жиҳатларини кенгқамровли тадқиқ этиш ўзбек қиссанавислиги ҳамда ҳикоячилиги генезисини илмий-назарий жиҳатдан текширишимизда қўл келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. -Toshkent: Fan, 1983, 167 s.
2. Ishoqov Yo. Navoiy lirikasida ruhiy tasvir va tahlil. //”O’zbek tili va adabiyoti”, 1991, 4-son, 15-20-b.



## МУҚИМИЙНИНГ САТИРИК ОБРАЗ ЯРАТИШ УСУЛЛАРИ

Рашидахон Шерқўзиёва

Данғара тумани 34- мактаб ўқитувчиси

e-mail: rashida@inbox.uz

Мавлоно Муқимий лирик асарлари билангина эмас, сатирик мероси билан ҳам ўзбек мумтоз адабиёти тарихида алоҳида ўрин тутди. Ижтимоий воқеликни, ҳаётдаги иллат ва нуқсонларни, замондошлари феъл-атворидаги қусур ҳамда камчиликларни бадиий тасвирлашда шоир сатира ва юмор элементлардан моҳирона фойдаланади. Муқимийнинг сатирик образ ва характер яратиш борасидаги усуллари бугунги кунда ҳам тажриба мактаби бўлиб хизмат қилмоқда.

Шоирнинг машҳур “Танобчилар” сатираси бугунги авлодга мактаб партасиданоқ таниш. Унда қўлланган айрим бадиий санъатлар, ўхшатиш ва иборалар ҳозирда ҳам кундалик муомалада тез-тез тилга олиб турилади. Бу эса асарнинг ғоят ҳалқчил ва бадиий-эстетик таъсирчанлигидан далолатдир.

Асар муайян сюжет ва композицион хусусиятларга эга. Сатирадаги ҳикоячи образининг воқеалар иштирокчиси эканлиги бадиий лавҳаларнинг ишонарли ва таъсирли бўлишига хизмат қилган:

*Бўлди таажжуб қизиқ хангомалар,*

*Арз этайин эмди ёзиб номалар.*

*Аدل қулоғи-ла эшит ҳолими,*

*Зулм қилур, баски, менга золиме...*

Ҳикоячи асарнинг кириш қисмидаёқ ўқувчини воқеа ва уларнинг иштирокчилари билан учрашувга тайёрлайди. Кийинги мисралардан аён бўлишича, асар сюжетини таноб воқеаси ташкил этиши, қаҳрамонлар Султон Али Хўжа ва Ҳакимжонлар эканлигидан воқиф бўламиз. Халқ ўртасида “Алихўжа – Хўжаали” ибораси машҳур эканлигининг ўзиёқ бизни сатирик кулгига тайёрлайди.

Қаҳрамонларни, аввало, феъл-атвордаги ўхшашлик яқинлаштиради. Мақсад бир – халқни зўравонлик билан талаш, муддао ҳам яқин – бировлар ҳисобига текинхўрлик. Ана шу вазият уларни бир оила ҳолига келтириб қўяди, муаллиф заҳарханда қилганидек, бири келинга, бошқаси куёвга айланади. “Иликни сарсон қиладиган” яқинликнинг моҳияти ҳам шунда.

*Образ яратишида ташқи кўриниши ҳам муҳимдир.*

*Саллалари бошларида оқ сават,*

*Кўрпача тагда ҳама вақт уч қават.*

*Бирлари мўлтонинома, ҳийлагар,*

*Бирларидур кунда фику гавда хар...*

Бошга оқ саватдек саллани кўндуриб юриш маҳобатли ва савлатли кўринишга интилишдан далолат. Тағларидаги уч қават кўрпача эса иззатталабликдан нишон. Уларнинг характер жихатдан мўлтонилиги, ҳийлакорлигини, ташқи кўринишдан тўнка ва эшакка ўхшашини яшириш учун ҳам баҳайбат оқ салла керак. Муаллиф-ҳикоячи бу билан ҳам каноатланмасдан фош қилишнинг янада таъсирчан усулини ишга солиб, портрет ва характер чизикларини қуюқлаштиради. Энди қаҳрамонларнинг ўзлари ўзларини фош қиладилар:

*Дерки: “Кўзунгга ҳали кал жўжаман,*

*Махтуми аъзамлик ўзим хўжаман...”*

Кўз олдимишга “оғзини ўн беш қариш” қилиб чиранаётган кал жўжа қиёфасидаги танобчининг келиши кучли қаҳқаҳа уйғотиш билан бирга, образлилик ва характер хусусиятларини янада бўрттиради. Бу “кал жўжа”нинг бобоси Шохлиғ мазор, тоғаси Эрхубби, холаси Биби Убайда, отасининг оғайниси Ҳизр эканлигини унинг ўз оғзидан эшитганимиздан сўнг мақтанчоқ ва мўлтони, таъмагир ҳамда иззатталаб амалдор образи тасаввуримизда яққол гавдаланади. Сатирадаги образларнинг энг таъсирли ва эса қоларли чизгилари шундаки, улар халқни хонавайрон қилишни фуқароларга яхшилик дея шарҳлайдилар:



*Яхшилигингни фуқаро билмагай ,  
Ҳали булар кўзга бизи илмагай.  
Икки танобини қилай ўн таноб,  
Юртингизи куйдуруб айлай хароб.*

Шунча аюҳаннос, дўқ-пўписадан мақсад битта: бечора деҳқонлардан яна уч-тўрт танга пора ундириш. Сатирик қаҳрамонларнинг чиранишлари, саъй-ҳаракатлари бекор кетмайди.

*Ақча қўлида икки-уч мўйсафид*

*Дерки: "Бу назрингиз-у, бизлар мурид".*

"Танобчилар" сўнгида хулоса ўрнида яна саккиз мисра шеър илова қилинган. Бу парча қиссадан ҳисса эмас. Гап шундаки, муаллиф-ҳикоячига танобчилардан бири ўғлини шо-гирдликка беради:

*Қўшти Жалолхон деган ўғлин манга,*

*Деди: "Руқум ўргатасиз сиз анга".*

Биз бундан сатирик образ ва характерга хос яна бир нарсани илғаймиз: амалдор ўғлининг саводли ёки маърифатли бўлишини эмас, ҳисоб-китоб (руқум)ни яхши ўзлаштиришини истайди. Бирни икки қилиш, юлғичликда уддабурон бўлиш, халқни талашда отасидан қолишмаслик учун ҳам танобчининг ўғли арифметикани яхши билиши керак!

Хулоса қилиб айтганда, Мавлоно Муқимий сатирик образ ва характер яратар экан, мундарижа ва шакл мутаносиблигини назардан қочирмайди, иккинчидан, ўз қаҳрамонларини муайян ижтимоий воқелик фонидан майдонга чиқаради. Шунингдек, образни ҳикоячи-муаллиф тилидан, қаҳрамонларнинг ўз тилидан ҳамда воқеа-ҳодисалар мантиғидан келиб чиқиб яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Qayumov A. «Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII – XIX asrlar)», T.: «Fan» nashriyoti, 1961. [53]
2. Qayumov A., «G‘oziy», T. 1959. [42]



## ADABIYOTDA GUL OBRAZI TASVIRI

Xolnazarova Altinay Qamchibekovna  
Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani  
49-maktab o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada badiiy adabiyotda gul obrazining talqini ochib berilgan. Gul obrazining badiiy-estetik xususiyatlari misollar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** obraz, gul obrazi, g‘azal janri, ruboiy

Adabiyot hayotni obraz orqali aks ettiradi va shu orqali biladi. O‘zbek adabiyotida bir qancha narsa-buyumlar obraz sifatida ifodalanadi. Gul obrazi eng qadimgi davrga borib taqaladi. Xalq og‘zaki ijodida ham gul obrazini ko‘plab uchratish mumkin. Maqollarda, laparlarda ham gul obrazi bor. Yozma adabiyotga nazar tashlasak, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ham gul obrazi ishtirok etgan bir qancha she‘rlarni uchratamiz.

Alisher Navoiy ijodida gul obrazi ko‘plab uchraydi. “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibiga kirgan va quyidagi matla’ bilan boshlanuvchi g‘azalda ham gul obrazi bor.

Ey sabo, ko‘zdin uchur Mozandaronning vardini

Kim, qilibmen surma Marvi shohi jonning gardini.

Shoir nega aynan Mozandaron guli, Marv shohi kabi iboralarni keltirdi. Tarixiy ma‘lumotlarga tayanib, bu baytdagi Mozandaron vardi hamda Marv shohi ikkita shaxs haqida ekanligini va bulardan biri Sulton Husayn Boyqaro hamda uning katta o‘g‘li Badiuzzamon mirzo ekanligini aytish mumkin. Mozandaron guli – Badiuzzamon. Ko‘ramizki, Navoiy ijodida gul obrazi faqat ayollarga emas, balki shahzodalarga nisbatan ham qo‘llangan.

Bilmay seni ul gul qovar, ey zor Navoiy,

Sendek anga bir bulbuli nolon kerak erdi.

Mazmuni: Ey zor Navoiy, bilmay seni ul gul quvar. Holbuki, unga xuddi sendek bir bulbuli nolon kerak edi.

*Har yerda bahor o‘lsa, saman bo‘lsa kerak,*

*Har yerda chaman – gulu saman bo‘lsa kerak.*

*Har qayda xazon bo‘lsa, tikan bo‘lsa kerak,*

*Har qayda tikan – ranju yaktan bo‘lsa kerak.*

Darhaqiqat, shoir g‘azallarining mavzu va g‘oyalarini, aytilmoqchi bo‘lgan fikrini matla’dayoq ilg‘ab olish mumkin. Shu bilan birgalikda, ana shu mavzu va g‘oya, fikr-mushohada to maqtahgacha ta‘kidlanib, kuchaytirib boriladi. Mavzu va g‘oyaga mos falsafiy xulosa chiqariladi. Shoir ijodidagi bu xususiyatni Maqsud Shayxzoda ham to‘g‘ri payqagan va o‘z vaqtida alohida ta‘kidlagan edi. Ammo, deya uqtiradi M.Shayxzoda, - bu yerda syujetning keng ma‘noda, ya‘ni fabula va hikoya ma‘nosida emas, fikr va tuyg‘ularning bir-biriga mantiqiy bog‘lanishi ma‘nosida anglash lozim<sup>1</sup>.

*Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab,*

*Menga lo‘li birla hindu, anga qo‘ng‘irotu qiyot.*

Boqiy yashash istagi bani basharga xos orzu. Modomiki bu dunyoda inson umri cheklangan ekan, hayotda o‘z nomini mangu qoldirishning yo‘li bormi? Navoiy bu savolga fardlaridan birida lug‘z yo‘li bilan shunday javob beradi:

*Bu gulshan ichraki yo‘q baqo guliga sabot,*

*Ajab saodat erur yaxshilik bila chiqsa ot.*

Darhaqiqat, vaqt sinoviga bardosh berish qiyin. Umr yeldek o‘tib ketaveradi. Ammo bog‘bondan bog‘ qoladi, yaxshidan nom. Navoiy qisqagina umrida mol-dunyo yig‘ish, hoyu-havaslariga berilish ustidan quyidagi talmehli baytida badiiy-falsafiy hukm chiqaradi:

*... Skandar ko‘zguniyo Jomi jam ichra ko‘r, ey shahkim,*

*Seni go‘r og‘ziga tortar – kamandi sayd Bahromi.*

Vafo, sadoqat, fidoyilik singari oliyjanob insoniy tuyg‘ular tarannumi Navoiyning keksalik davri lirikasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Insoniy muhabbat, munosib hamdard va dildosh kishiga yor bo‘lish har kimga ham nasib qilavermaydi. Navoiyning hayotiy umumlashma

<sup>1</sup> Жўраев Х. “Сўзда керак дард ила сўз”. Т., “Истиклол нури”. 2016. 23-бет.



darajasiga ko'tarilgan armonlari ifodasi uning lirikasida ba'zan ochiq, ba'zan ramziy, ba'zan esa obrazli ravishda ifodalanadi. Bu hol shoir lirikasining barcha bosqichlariga mansubdir.

Alisher Navoiy ijodida gul obrazi yor, oshiq, ma'shuqa bahzi o'rinlarda shoh va shahzodalarga nisbatan ham ishlatilgan. Navoiy ijodida gul obrazi yetakchi o'rin tutadi. Navoiy ijodining yanada xalqqa yetib borishiga gul obrazi muhim hisoblanadi. Gul obrazi oshiq dardini tarannum etishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham gul obrazi ifodalanadi.

*Bobur ul gul qo'ynida bulbul kibi topting maqom,*

*Bir navoye rost qil mundoq maqoming borida.*

Shoir bunda o'zinini bulbulga qiyoslaydi. Bulbul gul qo'ynida makon topsa, lirik qahramon gul deb o'z vatanini nazarda tutadi. Lirik qahramon uchun gul Vatan, u o'z vatanida xuddi bulbul kabi makon topib, keyin xonish aytishini ta'kidlaydi. Bu she'rda gul obrazi Vatan timsolida kelgan.

*Gul tikandur ko'zlarimga ul yuzi guldin yiroq,*

*Sarv o'qdur bag'rima ul sarv bolo bo'lmasa.*

Bu she'rda lirik qahramon gulning tikanli bo'lishini ta'kidlagan. Gul obrazi oshiq va ma'shuqa timsolida kelgan.

*Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayxon,*

*Yuzung xur, soching anbar, so'zung mul, menging meynon.*

*Meynon menging, so'zung mul, anbar soching, yuzung xur,*

*Rayxon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.*

Bu misralarda gul, rayxon, anbar obrazlari yor timsolini ifodalaydi. Bunda oshiqning ma'shuqasini tashqi qiyofasini har xil obrazlar bilan aks ettiradi, o'xshatadi. Yor timsolida gul, rayhon, anbar kabilarni ko'radi. Bu obrazlar lirik qahramon tilidan aytilib, ilohiylik kuylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. T., "Yangi asr avlodi", 2004.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., "O'zbekiston", 2002.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. T., "Fan", 2007.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(8-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000